



Sohila AMINOVA

CHDPU Lingvistika va ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi

E-mail: sohilaaminova@gmail.com

PhD A.Badridinova taqrizi asosida

THE REAL FOUNDATIONS OF THE EMERGENCE OF THE HEROISM MOTIF IN FOLKLORE AND WRITTEN LITERATURE

Annotation

This article analyzes the life-based foundations of the emergence of the heroism motif in folklore and written literature. Epic poems, as one of the main genres of oral folk art, are examined in terms of their form and content, reflecting the worldview, moral values, and social life of the people. Uzbek folk epics are compared with the classical epics of world literature, highlighting the specific features of heroic, romantic, and historical epics. Using the example of the epic Alpomish, the symbolic meaning of the ideal hero, embodying wisdom and courage in the people's imagination, is discussed. The article also emphasizes the role of folklore in enriching the literary language.

Key words: Folklore, oral folk art, epic, heroism motif, romantic epic, historical epic, Alpomish, ideal hero, national values, literary language.

ЖИЗНЕННЫЕ ОСНОВЫ ПОЯВЛЕНИЯ МОТИВА ГЕРОИЗМА В ФОЛЬКЛОРЕ И ПИСЬМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются жизненные основы появления мотива героизма в фольклоре и письменной литературе. Эпосы как один из основных жанров устного народного творчества анализируются с точки зрения содержания и формы, отражающих мировоззрение, нравственные взгляды и социальную жизнь народа. Узбекские народные эпосы сопоставляются с классическими эпосами мировой литературы, выделяются особенности героических, романтических и исторических эпосов. На примере эпоса Алпомиш раскрывается символическое значение образа идеального героя, воплощающего мудрость и мужество в народном сознании. В статье также подчеркивается роль фольклора в обогащении литературного языка.

Ключевые слова: Фольклор, устное народное творчество, эпос, мотив героизма, романтический эпос, исторический эпос, Алпомиш, идеальный герой, национальные ценности, литературный язык.

FOLKLOR VA YOZMA ADABIYOTDA QAHRAMONLIK MOTIVI PAYDO BO'LISHINING HAYOTIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada folklor va yozma adabiyotda qahramonlik motivining shakllanishiga sabab bo'lgan hayotiy asoslar tahlil qilinadi. Xalq og'zaki ijodining asosiy janrlaridan biri bo'lgan dostonlar mazmun va shakl jihatidan keng yoritilib, ularning xalq dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy hayotdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, o'zbek xalq dostonlari bilan jahon mumtoz adabiyotidagi dostonlar qiyosiy jihatdan o'rganilib, qahramonlik, romanik va tarixiy dostonlarning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan. "Alpomish" dostoni misolida ideal qahramon obrazining ramziy ma'nosi hamda xalq orzusidagi donolik va mardlik timsoli tahlil etilgan. Maqolada folklorning adabiy tilni boyitishdagi o'rni ham ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Folklor, xalq og'zaki ijodi, doston, qahramonlik motivi, romanik doston, tarixiy doston, "Alpomish", ideal qahramon, milliy qadriyat, adabiy til.

Kirish. Xalq og'zaki ijodining eng yuksak va qadimiy ko'rinishlaridan biri doston va dostonchilik san'atidir. Dostonlar qadim zamonlardan beri yaratilgan bo'lib, bugungi kunda ham bebaho madaniy meros sifatida qadrlanadi. Folklor Chunki, ular yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashlarini va tafakkurlarini o'zida aks ettirib, jonli xalq og'zaki ijodi hamda ijro an'analari orqali avlodlardan avlodlarga yetib keladigan badiiy asar hisoblanadi.

Hozirgi kunga qadar barcha xalq tilshunoslari tomonidan xalq og'zaki irod namunalari o'rganilib, tahlil qilinib kelinmoqda. O'rganilgan tadqiqotlar har bir millatning adabiy tilini boyitishga xizmat qiladi. Tilshunos olim J.Abdullayev ta'kidlaydi "Xalq tili adabiy tilning boyishi uchun bitmas tuganmas xazinadir. Xalq og'zaki ijodi namunalari esa xalq tilida yaratilgan san'at asarlari. Shu ma'noda ular xalq tilining yuksak shakli hisoblanadi"[1]. Tilshunosning keltirgan tarifidan shuni tushunishimiz mumkinki, xalq tili bu adabiy

tilning ildizi hisoblanadi. Og'zaki ijodning o'zi esa shu ildizdan o'sib chiqqan mevali daraxt bo'lib bu esa boylik asosida yuksalib boradigan adabiy tildir, ya'ni rasmiy va ijodiy nutqning eng yuqori bosqichi. Shu sababli xalq tilini o'rganish, og'zaki ijodga e'tibor berish -adabiy tilni boyitishning eng samarali yo'lidir.

Folklor namunalarining yaratilishi va tarqalishi asosan og'zaki shaklda kechgani bois, ular asta-sekin umumiy qabul qilingan an'anaviy qoliplarni vujudga keltirgan. Qahramonlik ertaklari bilan dostonlari janr jihatidan muayyan farqlarga ega bo'lsa-da, ularning badiiy ifodasi umumiy an'anaviy uslubiy xususiyatlarga tayanadi. Ushbu ikki janrning kompozitsiyasi odatda kirish qismi, syujetning izchil bayoni hamda yakunlovchi bo'limdan tashkil topadi. Shuningdek, obrazlar mazmunan qarama-qarshi tasvirlar asosida ochib beriladi.

Mazkur janrlarning eng muhim va doimiy ravishda takomillashib borayotgan ko'rinishi doston bo'lib, u

adabiyotning liro-epik turiga mansub janrlardan biridir. O'zbek mumtoz adabiyotida dostonlar ayniqsa keng tarqalgan va yetakchi o'rin tutadi. Boshqa janr asarlaridan farqli ravishda, dostonlarda hayotiy voqelik keng qamrovda yoritiladi. Xalq og'zaki ijodida yaratilgan dostonlarda nazm va nasr unsurlari qo'shilib kelgan bo'lsa, yozma adabiyotdagi dostonlar asosan nazm shaklida bitilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Og'zaki so'z san'ati ko'pincha «folklor» yoki «xalqning og'zaki badiiy ijodi» atamalarini bilan ifodalanadi. «Folklor» atamasi XIX asrda ingliz olimi William Thoms tomonidan 1846-yilda ilk bor qo'llangan. So'z tarkibida «folk» — xalq, «lore» esa — bilim va donolik ma'nolarini anglatadi. Shu bois folklor — xalq donishmandligi sifatida talqin qilinadi. [2]. «Folklor» atamasi xalqaro miqyosda keng qo'llanadi, biroq uning mazmuni mamlakatlar kesimida turlicha talqin qilinadi. Masalan, Angliya va AQSh ilmiy an'analari folklor tushunchasi xalqning butun ijodiy faoliyatini qamrab oladi. Unga she'riy ijod, musiqiy meros, raqs va teatr san'ati, tasviriy hamda amaliy san'at namunalari, shuningdek, urf-odatlar, e'tiqodlar va marosimlar ham kiradi. O'zbek ilmiy adabiyotida esa bu tushuncha asta-sekin torroq doirada qo'llanib, aniqroq ma'noga ega bo'lib bormoqda. Bugungi kunda «folklor» deganda, odatda xalq og'zaki ijodi — ertak, doston, afsona, qo'shiq va maqollar nazarda tutiladi.

Professor B.Sarimsoqovning ta'kidlashicha, adabiyotda mavjud uch asosiy tur folklor asarlariga ham tatbiq etilishi mumkin. Biroq, ushbu uchlik doirasiga kirmaydigan va faqat folklorga xos bo'lgan janrlar — maqol, topishmoq, turli aytimlar, olqish hamda qarg'ishlarni alohida tur sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir. [3].

Shu nuqtai nazardan olim o'zbek folklori janrlari tarkibini quyidagi turlarga ajratadi:

1. Epos: afsona, naql, rivoyat, ertak, doston, terma, tarixiy qo'shiq, latifa, lof;
2. Lirik: sevgi-muhabbat qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, laparlari;
3. Drama: og'zaki drama, kulgi hikoya, qo'g'irchoqbozlik, askiya;
4. Maxsus tur: oddiy o'tirish olqishlari, qarg'ish, so'kish, maqol, matal, topishmoq va boshqa turdagi iboralar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy tadqiqotimiz qiyosiy yondashuvga asoslanganligi bois, dostonlarning nazmda yaratilgan yozma shakllari tahlil markazida bo'ladi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, mumtoz jahon adabiyotida yaratilgan dostonlar keng qamrovi, yirik hajmi hamda siyosiy, ijtimoiy va axloqiy masalalarni yoritishda dolzarbligi bilan ajralib turadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bunday asarlarning markazida har doim jamiyat va xalq taqdiri turadi, qahramonlar esa xalq va jamiyat bilan uzviy yaxlitlikda tasvirlanadi. Tilshunos olimlarning tadqiqotlarida xalq og'zaki ijodi namunasi sifatida dostonlar turlicha shakllarga ajratilib o'rganilgan. Xususan, V.M.Jirlunskiy o'zbek xalq dostonlarini qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romantik va kitobiy kabi turlarga bo'lgan [4].

Biroq yuqorida keltirilgan tasniflardan farqli ravishda, B. I. Sarimsoqov [5] dostonlarni uch asosiy guruhga — qahramonlik, romantik va tarixiy dostonlarga ajratadi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu uch shakl orasida xalq dostonchiligi taraqqiyotiga eng katta ta'sir ko'rsatgan ikki yo'nalish — qahramonlik va romantik dostonlar alohida o'rin egallaydi. Tadqiqotchi V.M.Jirlunskiy [6] ta'rifiga ko'ra, qahramonlik eposi real ijtimoiy voqelikni ideallashtirilgan shaklda ifodalaydi. Shu bilan birga, qahramonlarning xarakteri hamda ular tomonidan amalga oshirilgan jasoratlar ko'pincha tabiiylik doirasidan yuqoriligi bilan ajralib turadi. Qadimiy qahramonlik eposida esa ajoyib-g'aroyiblik mifologik tasavvurlar va xalq e'tiqodining real

unsuri sifatida namoyon bo'ladi. Biz bu turdagi dostonlarga qiyosiylikka asoslanib ilmiy ishimizning asosiy tadqiqot obyekti sifatida olingan o'zbek xalq og'zaki ijodi namunasi «Alpomish» va ingliz xalq og'zaki ijodi namunasi «Beowulf» eposini misol qilib keltirib o'tishimiz mumkin.

«Alp — o'lim yenga olmaydigan qahramondir» [7]. Qahramonlik motivini yorituvchi ko'plab syujetlar dostonlarda mahorat bilan tasvirlangan. Masalan, «Alpomish» dostoni mazmunida oddiy tavsifdan ortiq, chuqurroq tasvir va ta'rif mavjudligini kuzatish mumkin. Shoir Hamid Olimjon yozadi: «Xalq ongida go'zallik ideali- mardlik, adolat, haqiqatning hokimligi ideali bilan ajralmas bog'langan. Odamgarchilikning biror kun qat'iy yengajagi xalq ongida shubhasiz. Buning uchun esa qahramon bo'lmoq, mard bo'lmoq va dushman bilan olishmoq lozim» [8].

Tahlil va natijalar. Adolatni qaror toptirish uchun inson botir bo'lishi, belgilangan maqsadga erishish uchun esa kurash olib borishi zarur. «Alpomish» dostonida mardlik g'oyasining targ'ib etilishi ham aynan shu tamoyilga asoslanadi. «Alplik tizimi» [9] bilan bog'liq qarashlar qat'iy mezonlarga ega bo'lib, u faqat qahramonlik dostonlariga xos hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Jumladan; Alpomishdagi ba'zi kompozitsion tasvirlarni ko'rib o'tsak.

«Qirq kun o'rtadan aniq vaqt o'tdi, boz ravzadan ovoz keldi: «Boybo'ri senga xudoyim bir o'g'il, bir qiz berdi, yolg'iz emas egiz berdi; Boysari, senga xudoyim bir qiz berdi, egiz emas, yolg'iz berdi. Bundan borsang, farzandlarni ko'rasang, xaloyiqlarni yig'sang, to'y — tomoshalar bersang, to'ydan qalandar bo'lib, bolalarning otini o'zim qo'yib kelaman». [10].

Qahramon obrazida u oddiy bola sifatida emas, balki ilohiy xabar tufayli dunyoga kelgan noyob shaxs tarzida tasvirlanadi. «Boz ravzadan ovoz keldi» degan ifoda esa ilohiy vahiy yoki qadimiy, muqaddas makondan kelgan xabarni bildiradi hamda qahramonning koinot muvozanatida muhim o'rin egallashini anglatadi. Bunday tug'ilish tasodifiy emas, balki taqdir tomonidan belgilangan hodisa — ya'ni taqdiri tug'ilish sifatida talqin qilinadi. Demak, qahramon tug'ilishidan oldin ham qahramonlik maqomiga ega etib belgilangan. U, ayniqsa egiz tug'ilish motivi orqali, qudratli va betakror nashning davomchisi sifatida gavdalanadi. Shu bois qahramonning tug'ilishi oddiy biologik jarayon emas, balki adabiy-badiiy ramziy ma'noga ega hodisa sifatida ko'rsatiladi. Bu holat orqali muallif qahramonning ilohiy nasabini, uning el uchun ahamiyatli shaxs ekanini ifoda etib bergan.

«Shohimardon piri Boybo'ring o'g'lining otini Hakimbek qo'ydi, o'ng kiftiga besh qo'lini urdi. Besh qo'lining o'rni dog' bo'lib, besh panjaning o'rni bilinib qoldi. Qizining otini Qaldirg'och oyim qo'ydi. Boysarining qizining otini oy Barchin qo'ydi. Ana shunda Shohimardon piri Hakimbekka oy Barchinni atashtirib, beshkirti qilib: «Bu ikkovi er-xotin bo'lsin, Hakimbek bilan hech bir kishi barobar bo'lolmasin, omin allohu akbar», deb fohitani betiga tortdi» [11].

Hakimbek — Boybo'ring farzandi bo'lib, uning ismini Shohimardon piri qo'rgan. Bu holat ramziy jihatdan muhimdir: qahramonning hayoti oddiy emas, balki ilohiy reja asosida boshlanadi. Ism qo'yish, baraka berish va unashtirish kabi marosimlar uning muqaddas taqdir egasi ekanini ifodalaydi. «Hakimbek» ismi ikki tarkibiy qismdan iborat: «Hakim» — dono, aqli, hikmatli qarorlar qabul qiluvchi shaxsni, «Bek» esa — boshliq, sardor, yetakchini anglatadi. Shu tariqa muallif yoki rivoyat yaratuvchilari Hakimbekni donishmandlik va yetakchilik fazilatlariga ega, Oллоh tomonidan tanlangan qahramon sifatida tasvirlaydilar.

Dostonda tilga olinadigan “besh barmoqning izi” ham ramziy belgi hisoblanadi. Odatda bunday “tamg’a”lar qadimiy afsonalarda faqat tanlangan shaxslarga xos bo’lib, payg’ambarlar, sarkardalar yoki qahramonlar timsolida namoyon bo’ladi. Bu belgining mavjudligi Hakimbekning taqdir tomonidan belgilangan, o’ziga xos vazifaga ega shaxs ekanini ko’rsatadi. Shuningdek, Oy Barchin ham oddiy

qahramon emas, balki o’z ismi bilan go’zallik, sadoqat va epik go’zal timsoli sifatida gavdalanadi.

Bu ikki qahramonning unashtirilishi:

ilgari rejalashtirilgan ilohiy juftlikni anglatadi;

bu unashtirish xalqona epik dostonlarga xos motiv:

yigit – dono, kuchli; qiz – go’zal, sodiq;

ular orqali ideallik timsoli yaratiladi.

Aspekt	Tahlil
Ismi	«Hikmatli sardor», dono va kuchli shaxs
Yaralish	Piri orqali ilohiy baraka bilan tanlangan
Belgisi	Besh barmoq izi – muqaddaslik, ilohiy quvvat
Nikohi	Oy Barchin bilan unashtirilishi – mukammal juftlik
Martabasi	Hech kim unga teng emas – yagonalik timsoli
Ramziy ma’nosi	Xalq orzusidagi ideal qahramon, dono va qudratli inson

1.1 (Alpomish dostonidagi aspektlar va ularning ramziy ma’nolar).

Hakimbek xalq og’zaki ijodining bosh qahramoni sifatida xalq orzusidagi ideal shaxs timsolida gavdalanadi. Uning obrazida donolik, qudrat, muqaddaslik va betakrorlik fazilatlarini mujassam bo’lib, u ilohiy tanlov, jasorat va mukammal juftlik ramzi sifatida tasvirlanadi.

Qahramonlik dostonlaridan farqli ravishda romantik dostonlarda ko’tarikilik kayfiyati, qahramonlarning g’ayritabiyy sarguzashtlari va sevgi motivlari badiiy mahorat bilan ifodalanadi. Biroq, romantik dostonlarning syujet sxemalari odatda bir-biriga o’xshash bo’lib, voqealar ko’pincha bir xil ketma-ketlikda tasvirlanadi. Shunga qaramay, har bir romantik doston o’zining kompozitsion qurilishi, obrazlari, motivlarning talqini, xarakter va mazmuni jihatidan mustaqil ahamiyat kasb etadi. Masalan, “Tristan va Izolda”, “Layli va Majnun”, “Gul va Navro’z” kabi asarlar romantik dostonlarning yorqin namunalari.

Dostonlarning yirik janr tasnifidagi uchinchi guruhi esa tarixiy dostonlardir. Bu turdagi dostonlarda mavzu, obrazlar va ilgari suriladigan g’oyalar bevosita tarixiy voqelik hamda muayyan davrdagi kurash jarayonlari bilan chambarchas bog’liq bo’ladi. Shu sababli, ular baxshilar repertuarida boshqa dostonlarga nisbatan nisbatan kamroq uchraydi va tarqalish doirasi ham chegaralangan bo’ladi. Masalan, “Shiroq” yoki “Temurning bolaligi” kabi dostonlar bu guruhga mansubdir. Aniq davr va shaxslar asosida yoziladi, faktlarga yaqinligi sababli ijodkor erkinligini cheklaydi, shuning uchun baxshilar repertuarida kamroq uchraydi, tarqalish doirasi cheklangan, odatda muayyan mintaqaga yoki ma’lum tarixiy davr bilan bog’langan bo’ladi.

Xulosa va takliflar. Xalq og’zaki ijodi, xususan doston va dostonchilik, xalq madaniyatining eng yuksak hamda muhim san’at turlaridan biri hisoblanadi. Dostonlar qadimiy davrlardan buyon xalqning dunyoqarashi, tafakkuri va hayotiy tajribalarini o’zida aks ettirib kelayotgan, avlodlar-avlodga og’zaki ravishda yetib kelgan nodir badiiy merosdir. Folklor va og’zaki ijod jarayoni xalq tilining rivojlanishi va boyishida ham muhim o’rin tutadi.

Dostonlarning uch asosiy turi mavjud bo’lib – qahramonlik, romantik va tarixiy dostonlar — ularning har biri o’ziga xos mazmun, syujet va obrazlarga ega. Ushbu janrlarni tadqiq etishda ularning madaniy-milliy konteksti, ramziy qatlamlari va g’oyaviy asoslari chuqur tahlil qilinishi zarur. Ta’lim jarayonida xalq og’zaki ijodi, ayniqsa dostonlarga alohida e’tibor qaratilib, yosh avlodni milliy madaniyat va adabiyotga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, baxshilar repertuarini boyitish uchun keng tarqalgan dostonlar bilan bir qatorda nisbatan kamroq mashhur bo’lgan tarixiy dostonlarni ham keng targ’ib etish lozim.

Qahramonlik dostonlarida mardlik, donolik va ideal qahramon obrazlari markaziy o’rinda turadi; romantik dostonlarda esa fantastik unsurlar va sevgi motivlari ustuvorlik kasb etadi; tarixiy dostonlarda esa aniq tarixiy voqealar va shaxslar tasvirlanib, ularning tarqalish doirasi nisbatan cheklangan bo’ladi. “Alpomish” dostonidagi Hakimbek qahramoni orqali xalq orzusidagi ideal inson timsoli ifodalangan bo’lib, unda ilohiy tanlov, jasorat va mukammal juftlik g’oyalari ramziy ma’noda mujassam. Shu bois xalq tili va og’zaki ijodni o’rganish adabiy tilning taraqqiyoti hamda boyishida eng samarali omillardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev J. O’zbek xalq topishmoqlarining leksik-semantik xususiyatlari. Aforeferat. – Toshkent, 1994.
2. https://en.wikipedia.org/wiki/William_Thoms?utm_source=chatgpt.com
3. <https://yuz.uz/uz/news/alpomish-eposi-haqida-uch-etyud-yozgan-olim> (murojaat qilingan sana: 2025-yil 19-sentabr).
4. Жирлуникий В. М. Ўзбекистон халқий героик эпоси. – С. 58–293.
5. Sarimsoqov B. I. O’zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari. – Toshkent, 1969. – 32-bet.
6. Жирлуникий В. М. Ўзбекистон халқий героик эпоси. – С. 58–293.
7. Alpomish. O’zbek xalq qahramonlik dostoni [matn]. Aytuvchi: Fozil Yo’ldosh o’g’li. Yozib oluvchi: Mahmud Zarifdov. Ixchamlashtirib nashrga tayyorlovchi: Shomirza Turdimov. – Toshkent: Zabarjad Media, 2024.
8. Hamid Olimjon. So’zboshi o’rnida // Alpomish – O’zbek xalq qahramonlik episi. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 82–96.
9. Haydarova Umida. Ingliz mumtoz adabiyoti “Beovulf”da qo’llangan “suv” va u bilan bog’liq tushunchalarning semantik xususiyatlari// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz, SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(9), September, 2023.
10. Mirzayeva S. O’zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. T.: “Fan”, 2004
11. Zakirova Dilrabo Haydarovna. O’zbek folklorining nazariy asoslari// Academic Research In Educational Sciences, Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723, VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021
12. www. literature.uz. Adabiyot fani yuzasidan ma’lumotlar olish bazasi.
13. <https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Qahramon&veaction=edit>.